

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARLARI

(2026-yil 2-son)



PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

MAKTABGACHA TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA MULTIMEDIA
ASOSIDA MUSTAQIL TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.097>

M.S.Tolibova

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Samarqand kampusi 2-kurs talabasi

mohigultolibova20@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalarida mustaqil ta‘lim ko‘nikmalarini rivojlantirishda multimedia vositalarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Multimedia texnologiyalari o‘quv jarayonini interaktiv, vizual va amaliy jihatdan boyitib, talabalarning mustaqil fikrlashi, axborotni tahlil qilishi hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Multimedia, mustaqil ta‘lim, kompetensiya, interaktivlik, maktabgacha ta‘lim, raqamli pedagogika.

Abstract. This article highlights the role and significance of multimedia tools in developing independent learning skills among students of preschool education. Multimedia technologies enrich the educational process in interactive, visual, and practical ways, contributing to the development of students’ independent thinking, information analysis skills, and professional competencies.

Keywords: Multimedia, independent learning, competence, interactivity, preschool education, digital pedagogy.

Аннотация. В данной статье раскрывается роль и значение мультимедийных средств в развитии навыков самостоятельного обучения у студентов направления дошкольного образования. Мультимедийные технологии обогащают образовательный процесс в интерактивном, визуальном и практическом аспектах, способствуя развитию самостоятельного мышления, навыков анализа информации и формированию профессиональных компетенций студентов.

Ключевые слова: Мультимедиа, самостоятельное обучение, компетенция, интерактивность, дошкольное образование, цифровая педагогика.

Kirish. Zamonaviy globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va axborot oqimining keskin ortib borishi ta‘lim tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassis nafaqat nazariy bilimga, balki mustaqil o‘rganish, axborotni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va

innovatsion yondashuv ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi zarur. Ayniqsa, maktabgacha ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bu jarayon yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular kelajakda bolalarning ilk intellektual va ijtimoiy rivojlanish bosqichiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan pedagoglar sifatida faoliyat yuritadilar. Maktabgacha ta‘lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Bu bosqichda bolalarda bilish faolligi, nutq madaniyati, ijodkorlik va mustaqil fikrlash asoslari shakllanadi. Shunday ekan, bo‘lajak tarbiyachilarning o‘zida ham mustaqil ta‘lim ko‘nikmalarini rivojlantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va amaliyotga tatbiq eta olish kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Multimedia texnologiyasidan ta‘lim sohasida foydalanishning dolzarbligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmonida “Tayanch oliy ta‘lim muassasalarida yetakchi professor o‘qituvchilari ma‘ruzalarining audiovizual ta‘lim kontentini hamda multimedia ta‘lim mahsulotlarini (audiokitoblar, 3D, VR va boshqalar) ishlab chiqaruvchi maxsus media markazlarni tashkil etish” vazifalari belgilangan⁹⁴. Natijada talabalarning mustaqil ish faoliyatiga bo‘lgan qiziqishlari ortib, iqtisodiyotning real sektoriga malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish imkoniyatlari kengayadi.

Multimedia texnologiyalari ta‘lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Video, audio, animatsiya, interaktiv taqdimotlar, virtual laboratoriyalar va elektron ta‘lim platformalari o‘quv materialini ko‘rgazmali, tushunarli va qiziqarli shaklda yetkazish imkonini beradi. Bu esa talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshiradi, mustaqil izlanish faoliyatini rag‘batlantiradi hamda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Multimedia asosida tashkil etilgan ta‘lim muhiti talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, o‘zlashtirish sur‘atini moslashtirish va o‘z-o‘zini nazorat qilish imkonini yaratadi. Ayniqsa, maktabgacha ta‘lim yo‘nalishida bu yondashuv muhimdir, chunki talaba nafaqat bilim oladi, balki kelgusida bolalar bilan ishlashda qo‘llashi mumkin bo‘lgan didaktik materiallar, interaktiv o‘yinlar va elektron resurslarni yaratish ko‘nikmalarini ham egallaydi. Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalarida multimedia asosida mustaqil ta‘limni rivojlantirish masalasi pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mustaqil ta‘limni multimedia vositalari bilan uyg‘unlashtirish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash salohiyatini oshirish hamda zamonaviy pedagog sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Jahonda yetakchi davlatlar fan va texnika yutuqlarini baholashda global innovatsion indeks (Global Innovation Index, GII) mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, moddiy sohadagi mahsulotlar ishlab chiqarishda progressiv o‘zgarishlarni ta‘minlash, milliy mahsulotni jahon bozorida raqobatbardoshligining oshishida kadrlar muammosi chambarchas

⁹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktabrdagi «Raqamli O‘zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5030957>

bog‘liqligini ta’kidlaydi. Raqamli innovatsiyalar ta’limni to‘ldirish, boyitish va o‘zgartirish kuchlarini namoyish etdi va ta’limning 4-Barqaror rivojlanish maqsadiga (SDG 4) erishishni tezlashtirish va ta’limga universal kirishni ta’minlash usullarini o‘zgartirish salohiyatiga ega. U ta’lim sifati va dolzarbligini oshirishi, inklyuzivlikni kuchaytirishi, ta’lim boshqaruvi va boshqaruvini yaxshilashi mumkin. Inqiroz davrida masofaviy ta’lim ta’limning uzilishi va maktablarning yopilishi oqibatlarini yumshata oladi [2].

Ya’ni ta’lim jarayonlarining yangi modellarini tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi, ular doirasida har bir talaba tomonidan rejalashtirilgan ta’lim natijalariga erishish va o‘quv jarayonini shaxsiylashtirishga o‘tish mumkin. Bugungi kunda ta’limga oid tashabbuslar nafaqat tarkibni moslashtirish va talabalar uchun yanada jozibali o‘quv tajribalarini yaratish uchun axborot texnologiyalarni qo‘llashga qodirligini, balki doimiy ravishda ish joyidagi ta’limni o‘z sohalari mutaxassislarining kundalik ishlariga osonlikcha qo‘shib berish usullarini taqdim etadi. Mobil aloqaning keng qamrovi, Internetning yuqori tezligi hamda axborot kommunikatsion texnologiyalarning rivojlanishi multimedia vositalarining yanada qulaylashgani hamda imkoniyatlarining kengayib borayotgani ta’limni raqamlashtirishga keng imkoniyatlar yaratmoqda [3].

Raqamli ta’lim - bu talabalar yoki o‘quvchilarning ta’lim faoliyatiga yordam berish uchun texnologiyadan, asosan kompyuterlardan foydalanadigan o‘qitish shaklidir. U kompyuterga asoslangan o‘qitish (CBT), Web-ga asoslangan ta’lim (WBL), onlayn o‘qitish va virtual o‘qitishni o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy avlod – yuqori texnologiyalarning farzandlari, qog‘oz, ommaviy axborot vositalari ular uchun qiziq emas va tushunarsiz bo‘lib qoladi. Bu vaziyatda o‘qituvchi o‘zgaruvchan haqiqatga moslashishni o‘rganishi, mediata’lim orqali o‘quv jarayonini takomillashtirishda media kompetentlikni egallashi kerak bo‘ladi. Chunki, butun dunyo mamlakatlari qatorida O‘zbekistonda ham 2020 yilda boshlangan Covid-19 pandemiyasi karantini davrida media ta’limning bir qancha (normativ-huquqiy, infratuzilmaviy va iqtisodiy) muammolari oydinlashdi. Televideniye orqali va turli elektron ta’lim platformalarda – MOODLE, iSpring Learn, Google Classroom, ZOOM kabi, hatto ijtimoiy tarmoqlar (telegram) onlayn darslar tashkil etildi. Ko‘pchilik shunday hulosa keldiki, onlayn o‘qitish (videodars) – onlayn ma’lumot uzatishdan ko‘ra ancha murakkab jarayondir.

Oliy ta’limda o‘qituvchilar o‘zlarining mashg‘ulotlarini web-texnologiyalari asosida OTMning LMS – ta’limni boshqarish tizimi(TBT)da yoki ommaviy ochiq onlayn kurs (OOC), Google Classroom kabi bepul servislardagi shaxsiy kurslarida elektron o‘quv materiallarni taqdim qilish uchun sinf mazmunini, xususan ma’ruza mashg‘ulotlarini o‘zgartirishga majbur etdi. Biroq, buni amalga oshirishda o‘qituvchilar o‘quv materiallarini an’anaviy sinf mashg‘ulotlaridan ko‘ra samaraliroq qilishga urinishlarida katta mehnat sraflamoqda. Bunday ta’lim texnologiyada o‘qituvchilar ma’ruza mashg‘ulotida kompyuter taqdimotlarini TBTdan yuklab o‘tishi, onlayn amaliy mashg‘ulotlar, o‘z-o‘zini sinab ko‘rish,

tajriba o‘quv mashg‘ulotlari va onlayn guruh loyihalari kabi ko‘proq “faol o‘rganish” topshiriqlari orqali dars berish imkoniyatlari yaratildi.

O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib 2011-2012 yillarda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning filiallarida aralash o‘qitish tizimida E-learning (e.study.uz) va ochiq kodli MOODLE platformasi kabi TBTlardan (moodle.tuit.uz) foydalanila boshlandi. Kutubxonadagi mavjud adabiyotlarning elektron shakllarini yaratish, elektron kutubxonalar bazasini kengaytirish va ulardan masofadan foydalanish imkoniyatlari yaratilmoqda. Barcha kurslardan elektron o‘quv uslubiy majmualar universitet virtual ta‘lim tizimiga joylashtirildi va auditoriyalardagi dars jarayonlarida elektron ta‘limdan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Hozirgi kunga kelib mamlakatimizdagi barcha oliy ta‘lim mussasalarida ochiq kodli MOODLE platformasi asosida elektron ta‘lim an’anaviy ta‘limda birgalikda tatbiq etilmoqda. Guruhlardagi talabalarning hohishlari, imkoniyatlari turlichaligi yoki cheklanganligi nuqtai nazaridan, oliy ta‘limda AKTdan samarali foydalanda aralash va gibrid o‘qitish texnologiyalarini qo‘llashning didaktik usullarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Natijalar: Maqoloda maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalarida multimedia vositalari asosida mustaqil ta‘limni tashkil etish samaradorligi o‘rganildi. Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, multimedia texnologiyalaridan (videodarslar, interaktiv taqdimotlar, elektron resurslar, onlayn platformalar) foydalanish talabalar bilim darajasining oshishiga, o‘quv materiallarini chuqurroq o‘zlashtirishiga va mustaqil ishlash ko‘nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Tajriba guruhi talabalar nazorat guruhiga nisbatan mavzularni o‘zlashtirish, topshiriqlarni mustaqil bajarish va ijodiy yondashuv ko‘rsatish bo‘yicha yuqori natijalarga erishdi. Shuningdek, multimedia vositalari talabalar motivatsiyasini oshirib, ularning axborot bilan ishlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirdi. Olingan natijalar multimedia asosida mustaqil ta‘limni tashkil etish maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda samarali vosita ekanligini tasdiqladi.

Butun dunyoda, jumladan O‘zbekistonda ham Covid-19 pandemeya karantin sharoiti ta‘lim tizimida o‘qitish shaklini o‘zgartirishga majbur qildi. Hatto ishonchli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasi va uy sharoitida Internet aloqasi bo‘lgan mamlakatlarning o‘qituvchilari uchun ham onlayn ta‘limga tez o‘tish juda qiyin bo‘lgan. AKT va boshqa masofaviy ta‘lim resurslari mavjud bo‘lmagan mintaqalardagi o‘qituvchilar uchun o‘tish yanada qiyin yoki imkonsiz bo‘lib qoldi.

Butun Jahon Bankining baholashicha, karantin davrida dunyoda 826 milliondan ortiq talabalar ta‘lim resurslaridan (kompyuterga ega bo‘lmagan) foydalanmagan, 706 million atrofida talabalar esa internetga ulana olishmagan. UNESCOning Statistika institutining baholashicha, karantin davrida 191 ta davlatlarda yopilgan boshlang‘ich va o‘rta ta‘limda kamida 1,5 milliard talabalar va 63 million o‘qituvchilarga Covid-19 pandemeyasi o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi[4]. O‘zbekistonda 7,4 milliondan ortiq talabalar va talabalar uchun ta‘lim

mussasalari 2020 yilning 16-martidan boshlab yopilgan (1.1-jadval), keyinchalik onlayn va aralash an’anaviy ta’limga o‘tildi.

1.1-jadval.

Covid-19 pandemiyasi karantin davrida O‘zbekistonda ta’lim olishdan mahrum bo‘lgan o‘quchilar va talabalar soni [3].

Ta’lim muassasasi turi	Qiz bolalar	O‘g‘il bolalar	Jami
Maktabgacha ta’lim	350 194	382 658	732 852
O‘rta maktab ta’lim	1 200 484	1 284 694	2 485 178
O‘rta maxsus ta’lim	1 890 715	2 002 173	3 892 888
Oliy ta’lim	119869	179765	299 634
Jami	3 561 262	3 849 290	7 410 552

Karantin davrida barcha ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limni joriy qilishda talabalar bilan birgalikda o‘qtuvchilarda ham bir qancha muammolar oydinlashdi, hatto masofaviy ta’limni joriy etish bo‘yicha normativ hujjatlar qabul qilindi. Ayniqsa, maktab ta’limida masofaviy ta’limi uchun keng ko‘lamli AKT joriy qilinmagan sharoitda milliy televideniye orqali onlayn maktab darslari tashkil etildi.

O‘qituvchi va talabalar o‘rtasida topshiriq-javoblar almashinuvi ijtimoiy tarmoqlar (telegram), maktablar uchun web platformalar (masalan, <https://kundalik.com>) joriy qilindi. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim ommaviy ravishda Moodle ochiq kodli TBT asosida davom ettirildi. Bu esa pedagoglarga asinxron masofaviy va an’anaviy sinf sharoitida dars mashg‘ulotlarini olib borishda aralash yoki gibrid o‘qitish ta’lim texnologiyalarini qo‘llash kompetentligini oshirishni taqozo etadi. Ko‘pchilik shunday hulosa keldiki, onlayn o‘qitish – onlayn ma’lumot ma’lumot uzatishdan ko‘ra ancha murakkab jarayondir. Bundan tashqari, IT-infratuzilmasi va talabalarning aksariyati kompyuterlar va gadjetlar bilan ta’minlanmasdan masofaviy o‘qitish imkonsiz ekanligi aniq bo‘ldi.

Ushbu masalada, dastlab Murning tranzaksiya masofa nazariyasi haqidagi fikrlarini qaraylik. Maykl Græxem Mur (Michael Graham Moore) nazariyasiga ko‘ra, tranzaksiya masofasi “maxsus tashkil etish va o‘qitish usullari”ni talab qiladigan geografik kategoriya emas, balki pedagogikdir. U ikkita o‘zgaruvchidan (klasterlar, o‘lchovlar) – tuzilma va dialogdan iborat [98]. Tuzilma kurs loyihasini aks ettiradi hamda o‘quv jarayonini tashkil etish va AKTdan foydalanish vazifalarini belgilaydi. Muloqot AKT bilan bog‘liq real vaqtda ikki tomonlama aloqani o‘z ichiga olishi mumkin. Ushbu nazariyaga ko‘ra, talabalar on-layn muhitda psixologik va kommunikatsion bo‘shliqlarni boshdan kechirishiga asoslanadi. Murning pozitsiyasidagi talabalar bu masofani kamaytirish uchun tengdoshlari, o‘qituvchilari va o‘quv kontenti bilan uzviy munosabatda bo‘lishlari kerak. Mur talabalar tarkib bilan o‘zaro aloqada bo‘lganda, ular o‘zlari bilan fikrlashadigan, muhokama qiladigan va o‘rganadigan ichki dialogni tashkil etishini ta’rifladi. Shuningdek, u talabalarning

o‘qituvchilar bilan o‘zaro aloqasi muhim ahamiyatga ega, chunki talabalar tarkib bo‘yicha mutaxassis bo‘lgan o‘qituvchidan tajriba orttirishlari muhimligini ta’kidladi. Va nihoyat, talabalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar hayotiy ahamiyatga ega, chunki talabalar bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lganda, ular nafaqat tarkibni yaxshiroq o‘rganibgina qolmay, balki guruh dinamikasida harakat qilishni ham o‘rganadilar[90]. Mur o‘zaro munosabatlar sinxron yoki asinxron bo‘lishi kerakligini o‘ylamagan bo‘lsa-da, uning asosiy sharti har qanday o‘zaro munosabatlar talabalarning bilimini qo‘llab-quvvatlashi edi.

Asinxron ta’lim – bu [o‘qitish](#) uslubi bo‘lib, bu jarayonda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa ixtiyoriy vaqtda amalga oshiriladi. Bunda butun mas’uliyat talabaga beriladi (1.2-jadval).

1.2-jadval.

T-diagramma: Asinxron o‘qitish.

Yutuqlari	Kamchiliklari
Mustaqil va qunt bilan o‘rganishda moslashuvchanligi, qulay vaqt tanlsah, masofadan o‘qish, kurslarni ixtiyoriy ketma-ketlikda o‘zlashtirish, turli va ko‘p sonli tinglovchilar guruhi, boyitilgan elektron o‘quv kontenti, kognitiv malakani oshiradi.	AKT bo‘yicha ko‘proq bilim va ko‘nikmani talab qiladi, AKT bilan bir xil ta’minlanmaslik, internetda axborot xurujida chalg‘ishlar, internetning pastligi, tajriba o‘tkazishni imkonsizligi yoki virtualligi

Asinxron o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatiladigan [internet](#) resurslariga [elektron pochta](#), havolalar ro‘yxati, OOOKlar, multimediya, konferensiya tizimlari, elektron testlar, virtual o‘quv tizimlari, [internet onlayn muloqot servislari \(forumlar, bloglar, podkatlar va skrinkastlar\)](#) kiradi. Asinxron o‘qitish modellaridan biri bu Piring o‘qitish (inglizchada [Peering training](#)), u boshqa nomlarda gorizontal trening, tengdosh-o‘zaro o‘qitish, P2P learning kabi uchraydi. Ushbu yondashuv mustaqil ta’limda talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqotni asinxron aloqa bilan birlashtiradi. Sinxron o‘qitishning roli onlayn o‘qitish muhitida tobora ortib borayotgan bo‘lsa-da, asinxron o‘qitish hali ham masofaviy ta’limda o‘z o‘rniga ega.

Sinxron o‘qitish talabalar bilan o‘zaro muloqotning ajralmas qismi bo‘lib, bunda talabalar bir vaqtning o‘zida bir guruh bo‘lib ishtirok etadigan o‘quv jarayonini nazarda tutadi. Talabalar guruhi bilan o‘qituvchi biror vaqtda biror onlayn muhitning virtual sinfida mashg‘ulot o‘tkazadi (3-jadval). Shunday qilib, sinxronlashtirilgan onlayn ta’lim videokonferensiyalar, telekonferensiyalar, jonli chatlar va jonli efir kabi usullarni o‘z ichiga oladi.

1.3-jadval.

T-diagramma: Sinxron o‘qitish.

Yutuqlari	Kamchiliklari
-----------	---------------

Talabalarning o‘qituvchi va guruhdagilar bilan oson muloqot qilishi, guruhli jamoaviy faoliyat yuritish, real vaqtda o‘qish, tezkor teskari aloqa, tezkor fikr almashish, kontent bo‘yicha tushunmovchiliklarga o‘z vaqtida barham berish.	Samaradorlikning o‘qituvchi kompetentligiga bog‘liqligi, tayinlangan vaqtda talabalarning onlayn bo‘lishi, qat’iy grafikda dars jadvali, ehtiyoj tug‘ilganda kontentdan foydalana olmasligi, savol-javobda to‘liq nazoratning bo‘lmasligi.
--	--

Pandemeya karantini davrida ta’lim jarayonidagi tajribalar shuni ko‘rsatdiki, talabalar onlayn ta’limning sinxron o‘qitish usulini qadrlashadi va o‘z tengdoshlari va o‘qituvchilar bilan aloqadorligini his qilishadi. Talabalarga tezkor teskari aloqa muhim, tengdoshlarining tayyorlagan ma’lumotlarini qiziqib kuzatadilar, ijtimoiy tarmoqlarda jonli muloqotlar bilan o‘zlarini virtual sinfda tengdoshlari bilan birga his qiladilar. Bunday munisabatlarda talabalar tranzaksiya masofasining qisqarishini his qilishlariga olib keladi; boshqacha qilib aytganda, o‘zlarini guruhdoshlarining oldida jismonan hozir bo‘lib, mashg‘ulotlarni o‘zlashtirishlariga ehtiyoj sezmasliklari kuzatilmoqdqa.

Asinxron va sinxron o‘qitishning birlashtirilgan ta’lim sharoitlarida olib borilgan tadqiqotlar tahlilidan ma’lum qilinganki [4], aralash o‘qitish talabalarga unchalik maqul kelmagan. Tadqiqotchilar tajribalarida 62 nafar talabalarning 9 foizi audioni tinglash va video kontentni ko‘rib chiqish, javoblarni yozish va prezentatsiyalarini ko‘rishda ta’lim olish ishtiyoqining yoqolganligini va trakzaksiya masofasining kattalashganini kuzatishgan. Natijada, o‘qituvchilarga onlayn ta’limda dastlabki mashg‘ulotlarni sinxron o‘tkazishlarini taklif qilishgan.

Biroq, Covid-19 pandemiyasida qat’iy yoki biroz yumshatilgan karantin davrda asinxron va sinxron o‘qitishni birlashtirilgan ta’lim texnologiyalarida ta’limni tashkil etish dolzarb hisoblanadi.

1.4-jadval.

Onlayn ta’limda asinxron va sinxron o‘qitishlarning asosiy farqlari

Farqlari seziladigan omillar	Asinxron o‘qitish	Sinxron o‘qitish
O‘qish vaqti va sharoiti	Ixtiyoriy vaqtda onlayn kanallar	Real vaqtda onlayn yoki masofaviy ta’lim
Ma’ruza o‘tish	Avtonom holatda	Onlayn
Darsda erkinlik, jadallik	Aktiv	Passiv
Tezkor teskari aloqa	Sust	Tez
Ta’lim ma’suliyati	Talabada	O‘qituvchida
Kurslarni o‘zlashtirish ketme-ketligini tanlash	Erkin	Majburiy

Sinxron va asinxron onlayn o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishni hamda ikkalasi o‘rtasida to‘g‘ri muvozanatni topishni talab qiluvchi aralash ta’lim (Blended learning) – asosiy ta’lim modeli sifatida yuzaga chiqish uchun katta imkoniyatlarni

ko‘rsatadi. Aralash o‘qitish onlayn ta’limning yanada moslashuvchan variantni taqdim etadi, bu yerda an’anaviy sinf mashg‘uloti to‘liq yoki qisman virtual sinfdan foydalangan holda hamkorlikdagi veb-konferensiyalar (onlayn sinxron ta’lim) bilan almashtiriladi va mustaqil ta’lim uchun TBT bilan birlashtiriladi.

Aralash ta’limning ajoyib namunasi – dunyo eng ko‘p ishlatiladigan o‘quv platformasi bo‘lgan [Moodle TBT](#) orqali o‘qitiladigan kurslar va virtual sinf yechimi orqali sinxron onlayn o‘qitishning uzluksiz integratsiyasi deb aytish mumkin. Ushbu birlashtirilgan yechimlar mustaqil o‘qitishni keyingi bosqichga olib chiqdi. Talabalar har qanday hududdan o‘z tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan onlayn tarzda muloqot qilishlari va hamkorlik qilishlari mumkin. Bundan tashqari, ular o‘zlari uchun qulay bo‘lgan vaqtda kurslarni TBT orqali o‘zlashtirishlari mumkin.

Aralash o‘qitish exnologiyasini qo‘llashdan oldin, kursning sillabusini puxta ishlab chiqish lozim bo‘ladi. Sillabusda talabalarning boshlang‘ich bilimlariga qo‘yiladigan talablar bilan birga sinov savollarini taqdim etish maqsadga muvofiq. Chunki virtual sinfdan guruh talabalarining boshlang‘ich bilimlari, qiziqishlari va kurs davomida instrumental dasturiy vositalarda ishlash ko‘nikmalari minimal talabda bo‘lishi lozim. Buning uchun kichik onlayn test sinovi yoki so‘rovnoma o‘tkazish, virtual sinfdan jonli suhbat qurish maqsadga muvofiq.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta’limi ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabalari uchun “Ilmiy ta’lim” fanidan o‘quv kursi hemis.samtuit.uz platformasi orqali aralash o‘qitish texnologiyasi asosida tashkil qilindi. Onlayn o‘quv kursi quyidagicha tashkil etildi:

1. Fanning namunaviy dasturi asosida sillabusi ishlab chiqildi;
2. Aralash o‘qitishda ZOOM videoaloqa platformasida virtual sinf tashkil etilgan bo‘lib, onlayn video darslar rejalashtirildi, virtual sinfning Telegram botlari ishga tushirildi;
3. Onlayn kurs o‘quv kontenti haftalar kesimida matnli, video, animatsion, elektron kutubxonalarga havolalar va mehmon ma’ruzachi video darsiga havola, test nazoratlari kabi o‘quv materiallari bilan ta’minlangan;
4. Mustaqil ta’lim modullar kesimida tashkil etilgan bo‘lib, unda ma’ruza bo‘yicha bilimni baholash test sinovi, amaliy va laboratoriya ishlari individual topshiriqlariga javoblariga o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan baholarning o‘rtacha bahosi asosida ketma-ket o‘zlashtirish sozlangan;
5. Virtual sinfdan har bir moduldagi nazariy, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlar bo‘yicha taqdimotlar, topshiriqlarni bajarishga yo‘riqnomalar berib borish dars jadvali asosida bajariladi.

Onlayn kursda talabalarning davomati 99%, biroq aralash o‘qitishda virtual sinf davomati 45-60% atrofida. Buning sabablari talabalarning AKT terminallari bo‘yicha imkoniyatlarining va hududlarda internet qamrovining turlichaligidir.

Biroq, shuni unutmaslik kerakki, raqamli ta’limga kichik o‘zgarishlar va onlayn muhitda yangi vositalarni qo‘llash orqali erishish mumkin deb hisoblash noto‘g‘ri. Raqamli transformatsiya deganda ma’ruza videolarini onlayn joylashtirishning o‘zi kifoya deb o‘ylamaslik kerak, chunki masofaviy ta’lim va haqiqiy raqamli ta’lim muhiti o‘rtasida katta farq bor. Sifatni oshirish uchun nimani o‘zgartirish kerakligini anglash muhim. Masofaviy ta’lim odatda an’anaviy shaxsiy kursning kengaytmasi bo‘lib, qo‘shimcha moslashuvchanlik uchun multimedia kontenti onlayn tarzda taqdim etiladi. Raqamli ta’limda aksincha, loyihalovchilardan raqamlashtirish mazmunini va talabalarning u bilan o‘zaro munosabatini butunlay qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Hozirgi yoshlarni Elektron pochta, Whatsapp, Telegram, Facebook, Instagram, Tiktok, YouTube, Smartfon, kompyuter va planshetlardan to‘xtatib bo‘lmaydi. Bugungi talaba har qachongidan ham tezroq ma’lumotga ega bo‘ladi, qayta ishlaydi va almashadi. Talabalar o‘zgarmoqda va ta’lim sohasi raqamli transformatsiya bilan hamnafas bo‘lishi juda muhimdir.

Xulosa.Maqolada maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarida multimedia asosida mustaqil ta’limni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari atroflicha o‘rganildi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy ta’lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan samarali foydalanish talabalarning mustaqil o‘rganish faoliyatini faollashtirishda muhim omil hisoblanadi.

Multimedia vositalari — videodarslar, interaktiv taqdimotlar, elektron o‘quv qo‘llanmalar, animatsiyalar, onlayn testlar va raqamli platformalar — talabalarning o‘quv materialini chuqur va ongli ravishda o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim yo‘nalishida vizual va interaktiv materiallarning ahamiyati yuqori bo‘lib, ular bo‘lajak pedagoglarning ijodiy fikrlashi, pedagogik tafakkuri va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Multimedia asosida tashkil etilgan mustaqil ta’lim talabalarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi:

- mustaqil ishlash ko‘nikmalarining shakllanishi;
- axborotni izlash, saralash va tahlil qilish malakasining rivojlanishi;
- raqamli kompetensiyaning oshishi;
- o‘quv motivatsiyasining kuchayishi;
- ijodiy va tanqidiy fikrlashning rivojlanishi.

Shu sababli multimedia vositalaridan foydalanish ta’lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Har bir talaba o‘z qobiliyati va tezligiga mos ravishda materialni o‘zlashtirishi mumkin bo‘ladi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarida multimedia asosida mustaqil ta’limni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng joriy etish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini yanada takomillashtiradi hamda ularning raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi “Raqqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmoni. <https://lex.uz/docs/5030957>

2. Umarov A.A. Основы использования цифровых технологий в организации самостоятельного образования “Raqqamli texnologiyalarning iqtisodiyot va ta’limdagi o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 2024 yil, 26-27 aprel. -B.155-158

3. Modern psychologu in the capitalist countries.-M.: 1963, p.406

4. Umarov A. Мультимедиа технологияларини ўргатувчи педагогик дастурий воситалари. “Ilm sarchashmalari” ilmiy-nazariy, metodik jurnal, Elektron Jurnal, Urganch-2021. sentabr soni, -B.108-110

5. Zakharova I. G. Information technologies in education.-M.; Academy. 2008 - p.192

6. Gershunsky B.S. Philosophy of Education-M.; 1998. –p.210

7. Umarov A., Mamanazarov B. Методика преподавания специальных предметов в учреждениях высшего профессионального образования. Аэтерна научно-издательский центр. международный научный журнал инновационная наука ISSN 2410-6070 №7/2020 –С. 83-85.

8. Sukhomlinsky V.A. I give my heart to children. - Kyiv, 1972, - p. 95

9. Stones E. Psychopedagogy - M. : practice, 1984, -p.158

10. Umarov A. Modern Pedagogical Technologies in the Educational Process. International journal of innovative research, In Computer & Communication engineering Volume 9, issue 1, January 2021 impact factor: 7.488 -P. 127-130.

11. Umarov A. The Role Of Multimedia In The Independent Education Of Students. The American Jurnal Of Social Science And Education Innovations, 2(11), -P. 152-155 USA 2020 Impact Factor 5.525